

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - DAVR TALABI

Farqona viloyati Toshloq tumani 11 -maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Raxmonova Dilnoza Mirkomilovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarining, ya’ni, kompyuter texnikasining ta’lim jarayonida keng ko’lamda kirib kelishi hamda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiya, elektron doska, interaktiv, audio, elektron darslik.

Ta’lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o’sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko’nikma va malakalarini o‘zlashtirgan kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta’lim maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan imkoniyatlar o‘z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta’lim-tarbiya berishni, o‘quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o‘z navbatida har bir o‘qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Boshlang‘ich ta’lim ta’lim-tarbiyaning poydevoridir. Poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa imorat shunchalik chidamli bo‘lganidek, mukammal boshlang‘ich ta’lim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda va ta’limning keyingi bosqichlarida hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilar savodini chiqarishda, ularga mustahkam bilim berish va ularda zaruriy ko’nikma va malakalarni shakllantirishda barcha imkoniyatlarni ishga solishlari, ilk ta’lim-tarbiya jarayonini

sifatli olib borishi lozimdir. Bu vazifa har bir o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi va bu mas'uliyatni to'laqonli his etgan holda mehnat qilish zahirida esa ijodkorlik, izlanish, ilg'or va innovatsion texnologiyalarni, ilg'or ish tajribalarini, samarali didaktik materiallarni o'qitish jarayonida mahorat bilan qo'llash faoliyati yotadi. Hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi, yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning hozirgi bosqichi bu jarayonga axborot-kommunikatsion texnologiyalarining, kompyuter texnikasining keng ko'lamda kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi tufayli bugungi kunda deyarli barcha maktablar kompyuter texnikasiga ega bo'ldilar va maktab jamoalari ta'lim jarayonida mazkur texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanmoqdalar. Respublikamizda ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish uchun tegishli ilmiy-metodik bazani yaratish va mustahkamlash jarayoni ketayotir. Yaratilgan va ta'lim muassasalariga qadar yetkazib berilayotgan elektron darsliklar, ayrim olingan mavzular bo'yicha dars loyihalari, slaydlar to'plamlari, Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quvchilarni zamon talablari bo'yicha baholash bo'yicha metodik qo'llanmalar fikrimizning dalilidir. Umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarida har bir o'quvchining tayanch va fanga oid kompetensiyalarini umumjahon ta'lim standartlari doirasiga olib chiqish vazifasi qo'yilgan. O'quvchining savodxonlik darajasini oshirishni esa zamonaviy axborot texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'quvchining savodxonlik darajasini oshirishda ona tili ta'limi muhim omillardandir. Ona tilini o'qitishda axborot texnologiyalardan unumli foydalanish ta'lim samaradorligini beqiyos oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'limning har ikkala bosqichida ona tili ta'limi samaradorligini oshirish uchun qilinadigan sa'yi-harakatlar bugungi kunning ham talabidir desak yanglishmaymiz. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarida o'quvchining savodxonligini oshirish maqsad qilib belgilangan ekan, bunga boshlang'ich sinflardan oq jiddiy e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan

foydalanishning keng imkoniyatlari yaratilgan va bular sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv o'quv dasturlari, audio qo'llanmalar, multimediali darslarni kiritish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirishida eng qulay va zamonaviy usullardan biri-dars jarayonida multimedia darslaridan foydalanish, o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi avvaldan dasturlashtirilib disklarga yozilgan o'quv topshiriqlari yordamida og'zaki va yozma matnlar yaratishga mo'ljallangan kommunikativ modullar asosida ishlashdir. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z yasash, gap tuzish va matn yaratishga mo'ljallangan kommunikativ modullar o'quvchilarni aniq, jadal fikrlashga, oxirgi maqsad sari intilishga, lozim bo'lsa o'z fikrini himoya va isbot qilishga o'rgatadi, o'z nutqiy mahoratini mustaqil rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur fikrlarning rivoji uchun imkoniyat yaratish esa, yana va yana o'qituvchiga, uning pedagogik mahoratiga, zamonaviy texnika vositalarini tushunishi va uni o'rganilayotgan mavzu doirasida tadbiq eta bilishiga bog'liqdir. So'zimizning isboti sifatida 4-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirishga mo'ljallangan o'yin topshiriqlardan namuna keltiramiz. 1-topshiriq. Berilgan maqollarni multimedia ekraniga tering. Ifodali o'qing va ma'nolarini sharhlang.

1. Odam bo'laman desang, Ona tilingni sev.
2. Mehnat qilgan elda aziz.
3. Til bilgan el biladi.
4. Ona-yurting, oltin beshiging.

Dars jarayonida yozilishi va tahlil qilinishi lozim bo'lgan maqollar o'qituvchi tomonidan diktafonda qiroat qilinadi. O'quvchilar eshitganlarini imlo qoidalari hamda tinish belgilariga rioya qilgan holda kompyuter ekraniga terishi lozim. Tayyor maqollar o'qituvchi tomonidan qiroat bilan mikrofondan o'qiladi, boshqalar esa eshituv asbobi (naushniklar) orqali qiroatni tinglaydilar. O'qilayotgan maqollarni esa multimedia ekranida ko'radilar va tanqidiy fikr bildiradilar. Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar

soʻzlarni toʻgʻri va chiroyli talaffuz qilishga, imloviy xatolardan saqlanishga, jumlani shoshilmay qiroat bilan oʻqishga harakat qiladilar. Bir yoʻla qiroat sanʼati sirlaridan ham bahramand boʻladilar. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish oʻquvchilarda jadal fikrlash, zamonaviy texnika bilan erkin ijodiy muloqot koʻnikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Oʻquvchida tez bilib olishga, ixcham va jadal fikrlashga, oʻz bilim va malakasini darhol namoyish yetishga ishtiyoq, oʻz bilimiga ishonch ortadi. Qisqa qilib aytganda, kompyuter bilan muloqot oʻquvchini oʻz-oʻzidan taʼlim jarayonining subʼektiga aylantiradi. Kompyuter dasturi uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga oʻrgatadi. Bunday samara esa bugungi kunda ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Ozbekiston Respublikasi Xalq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5712-son Farmoni
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187- sonli qarori
3. <http://www.multimedia.uz/uzb/article76.html>